

O‘SMIRLARDA XULQ OG‘ISHINI PSIXODIAGNOSTIK BAHOLASH IMKONIYATLARI

Ergashev Jo‘rabek Xalilovich

Aniq va ijtimoiy fanlar kafedrası “Ijtimoiy fanlar” kafedrası stajyor o‘qituvchisi

Tel: (93) 112-28-98

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘smirlar xulq-atvoridagi og‘ishlar, ijtimoiy dezadaptatsiya (moslasha olmaslik) muammolari hamda ularning yuzaga kelish sabablari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida o‘smir va o‘spirinlar guruhlarining emotsional holati “O‘z-o‘zini emotsional holatini baholash” metodikasi yordamida o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sinaluvchilarning xotirjamligi, g‘ayratliligi, ko‘tarinki kayfiyati va o‘ziga ishonch ko‘rsatkichlari o‘rtasida yuqori darajadagi statistik ijobiy korrelyatsiya ($P < 0.01$) mavjud. Shuningdek, xulqi og‘ishgan o‘smirlarning o‘z-o‘ziga yuqori baho berishi ortida yashiringan psixologik xususiyatlar (qaysarlik, egoizm va himoya mexanizmlari) va ularni korreksiya qilishda kompleks yondashuv zaruriyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘smirlik davri, xulq-atvor buzilishi, ijtimoiy dezadaptatsiya, emotsional holat, o‘z-o‘zini baholash, korrelyatsion tahlil, tolerantlik, psixopatologik sindrom.*

KIRISH. O‘smirlik xulq-atvoridagi buzilishlar va ularning ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga egaligi tufayli juda dolzarbdir. Bunday o‘smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma‘naviy ahloqiy me‘yorlarni tan olmasligi ta‘lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi oila, mahalla va jamiyat oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Ularning hulqidagi o‘zgarishlarga binoan quyidagi kategoriyalarga ajratish maqsadga muvofiq:

- yuqori tajovvuzkorlik (agressiya) ko‘rinishidagi;
- jinoyatchilik “qurboniga” aylanuvchi;
- tadbirkorlik faoliyatida barvaqt faol ishtiroki tufayli “erta” kamol topganlar;
- muomala va o‘zaro munosabatlarda “qiyinchilik” his etadilar.

Mazkur muammoning tadqiqoti bilan shug‘ullangan bir qator olimlarning fikricha, har o‘nta sodir etilgan jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf qilish orqaligina samaraga erishish mumkinligini isbotlamoqdalar. Xulq-atvorida buzilishlari bo‘lgan o‘smirlarning psixik rivojlanishida ham o‘zgarishlar ro‘y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablar (etiopatogenezi) tibbiy va korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirishi miqdori kompleks yondoshuvni talab etadi.

Zero, yildan-yilga o‘smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar, ularning intellektual-emotsional-irodaviy rivojlanishidan ham orqada qolish holatlari ortib borishi kuzatilmoqda.

Endi o‘smir xulq-atvorida ro‘y beruvchi “og‘ishlar” psixopatologik sindromlarning, ya’ni bir qancha simptomlar yig‘indisining yaqqol ko‘zga tashlanuvchi belgilarini keltirmoqchimiz.

Jamoalarni natijalarini tahlili quyidagicha; o‘smirlarimizning xotirjamlik – bezotalik bo‘yicha 7.2 ball. Bu ko‘rsatkich o‘smirlarning omadga yuz foiz ishonishlari, xech narsa xavotirga solmasligi, o‘ziga butunlay ishonishlari va xavotirdan yiroqdaligini ko‘rsatdi. G‘ayratliqlik- toliqqandlik 8 ball. Bu o‘smirlar g‘ayratli, juda chaqqon, ko‘p energiya, kuchli xarakter va o‘z ustida juda ko‘p ishlaydilar. Uchinchi shkala ko‘tarinkiylik – tushkunlik natijasi 6.8 ball. O‘zlarini yaxshi his qiladilar, xayotga bo‘lgan qiziqishlari yuqori, kayfiyatlari ham yaxshi darajada. To‘rtinchi shkala o‘ziga ishonch – yordamga muxtojlik 7.2 ball. O‘smirlar o‘zlarini a’lo his qilishadi, iqtidorli, kuchiga ishonadigan va irodali bo‘lishadi. O‘smirlar emotsional holatlarni ijobiyligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Jamoalarning “O‘z-o‘zini emotsional holatini baxolash” metodikasi umumiy ko‘rsatkichlari (Umumiy ko‘rsatkich)

№	Jamoalar	Xotirjamlik – bezotalik	G‘ayratliqlik- toliqqanlik	Ko‘tarinkiylik – tushkunlik	O‘ziga ishonch – yordamga muhtojlik
1	O‘smirlik	7,2	8	6,8	7,2
2	O‘spirinlik	7.8	7.8	7.8	8.2
3	Doimi	6.6	6	6.6	6.6
4	Jami	7.2	7.3	7.1	7.3

Voyaga yetmaganlarda xulq-og‘ishning umumiy ko‘rsatkichlari; xotirjamlik – bezotalik 7.8 ball. O‘ziga va omadga yuz foiz ishonadigan, xavotirdan yiroqroq o‘sprinlardir. Bundaylar ruhiy va jismoniy jihatdan tayyor ekanligidan dalolatdir. G‘ayratliqlik- toliqqanlik 7.8 ball. Ko‘p energiya va kuchli xarakter egalari o‘zlarini erkin his qilishlari, serharakatliklarini bildirishdi. Ko‘tarinkiylik – tushkunlik 7.8 ball. Ko‘tarinkiylik ruhiy holatda yurishlari, o‘zlarini yaxshi his qilishlari va hayotga bo‘lgan qiziqishlari yuqoriligini ko‘rdik. O‘ziga ishonch – yordamga muxtojlik 8.2 ball. Iqtidorlariga ishonishlari, iqtidorlari, kuchlariga ishonishlari, o‘zlarini erkin his qilishlari va irodaliylik hususiyatlarini ko‘rib chiqdik. O‘sprinlarda o‘zlarini yaxshi his qilishlari va irodali xususiyatlari mavjud.

Voyaga yetmaganlarda xulq-og‘ishning natijalari; xotirjamlik – bezotalik 6.6 ball. O‘zlariga butunlay ishonishlari va xavotirdan yiroqda. Ularni xech narsa xavotirga solmasligi, xech kimga bog‘liqli, muxtojlikni his qilmasligini bildik. G‘ayratliylk- toliqqandlik 6 ball voyaga yetmaganlarda xulq-og‘ishning ijtimoiy turmush tarziga qarab o‘zgarib boradi. O‘zlarini judayam beg‘am, g‘ayratli sezishlari jismoniy kuchlariga ishonishlari ko‘rsatishgan. Ko‘tarinkiylik – tushkunlik 6.6 ball hayotbaxshliklari hammasi joyida o‘zilarini yaxshi his qilishlarini bildirishdi. bolalar ko‘proq xayotni sevishadi. Muxlislari va xalkning xizmati uchun harakat qilishadi. O‘ziga ishonch – yordamga muxtojlik 6.6 ball. O‘zlarini iqtidori va kuchiga ishonishlari, irodaliylklari, o‘zlarini a‘lo his qilishadi.

Jamoalarning umumiy ko‘rsatkichlari;

Xotirjamlik – bezotalik 7.2 ball. bolalarning omadga ishonishlari, xech narsa xavotirga solmasligi, o‘ziga butunlay ishonishlari, xavotirdan yiroqdaligi va muxtojlikni his qilmasliklari belgilab berdi. Umuman olganda bu ko‘rsatkich yuqori daraja hisoblanib, bolalar uchun ideal ko‘rsatkichdir. Ularni bo‘shashgan, murakkab maqsadlardan o‘zingizni olib qochadi deb bo‘lmaydi. Xato qilishdan qo‘rqib o‘z oldlariga kamroq maqsadlar qo‘ymaydilar. Muvaffaqiyatga ham, muvaffaqiyatsizlikka ham loqayd va xotirjam qaray olmaydilar. Ehtiyojlari miqdori ko‘pligi tufayli ularda bir muncha zo‘riqishi, xarakterlari notinch va asabiy ruhiy olamlari qo‘zg‘aluvchanliklari sezilmaydi. Murakkab maqsadlardan o‘zini olib qochish va zo‘riqish jangovon faoliyat natijasi bo‘lib, bunga o‘z navbatida, temperament tiplarining o‘ziiga xos xususiyatlari ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini o‘tkazadi, lekin ularni haddan tashqari zo‘riqqan, me‘yordan ortiq faollar, sabr-toqatsizlar deb aytib bo‘lmaydi. Shu bilan birga qo‘zg‘alish va zo‘riqishni namoyon bo‘lgan darajasi ularda “tolerantlik” shakllanganligini ko‘rsatadi. Tolerantlik-yoqimsiz omillar ta‘siriga berilmaslik, ruhiy chidamlilik. Bu holat ularning mashq turi va musobaqalarni muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun imkoniyat beradi.

G‘ayratliylk- toliqqanlik 7.3 ball. Ko‘p energiya soxiblari, kuchli harakat va o‘zlarini barxam his qilishadi. Ular o‘z hislarini va kayfiyatlarini boshqara oladilar. Bunday bolalarning asablari charchagan, injiq, charchagan, tez hayajonlanadigan, kuydi-pishdi, qiziqishlari o‘zgaruvchan va beqaror deb aytib bo‘lmaydi. O‘z sog‘ligi haqida qayg‘uradi, Agarda ularda, hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. G‘ayratli va serharakat egalariidir.

Ko‘tarinkilik – tushkunlik 7.1 ball. O‘zlarini yaxshi his qilishlari va ko‘tarinkiylik ruhiy holatda yurishadi. Bolalar ko‘proq xayotni sevishadi. Jamoa va tengqurlarining xizmati uchun harakat qilishadi. Hayajonlari va hissiyotlari kuchli, ko‘tarinkiylik ruhida, quvnoq, har doim xushchaqchaqliqligi yuqori darajada yurishadi. Emotsional barqarorliklari yuqori.

O‘ziga ishonch – yordamga muxtojlik 7.3 ball. O‘zlarini iqtidori va kuchiga ishonishadi. O‘zlarini a’lo his qilishadi va irodali bo‘lishadi. Bu ko‘rsatkich yuqori daraja hisoblanadi. Ularni o‘zlariga bo‘lgan ishonch darajalari o‘z muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri baholash va ularga munosib javobni bera olishni, o‘z imkoniyatlarga ishonchni yuzaga keltiradi, sinaluvchilarda o‘zini kamsitishga moyillik bo‘lmasada, lekin bir muncha tez xafa bo‘lish, ta’sirchanlik bor. O‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari lozim. Bu toifa bolalarda ortiqcha vahima, har doim bezovtalanish, oldindan nohush fikrlar va xislar vujudga kelishi, ta’sirga tez berilish mavjud emas. Qat’iy o‘zlariga ishonish kuzatiladi. Ayrim xollarda jamoatchilik orasida o‘zlariga ishonmaslik hissini tuyadilar, o‘zlarini haddan tashqari jiddiy, kamgap tutmaydilar, lekin, o‘z imkoniyatlarini yetarlicha baholaydilar. Ularni “o‘zdan” chiqish holatiga olib kelish qiyin. Atrofidagilar va yaqinlarining ta’siriga berilishga moyillik kam. Yuqorida keltirilgan sifatlar ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi bolalar uchun ayni muddaodir.

Bolalarni umumiy korreksion natijalarga ham nazar tashlasak xotirjamlik birga teng bo‘lganida g‘ayratliylk, ko‘tarinkiylik, o‘ziga ishonch ham yuqori va yaxshi bo‘ladi. G‘ayratliylkda esa ko‘tarinkiylik yaxshi va o‘ziga ishonch yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘tarinkiylik birga teng bo‘lganda o‘ziga ishonch yuqori bo‘lgan. Umumiy ko‘rsatkichda bolalarda bezotalik, toliqqanlik, tushkunlik va yordamga muxtojlik sezilmagan.

2-jadval

Jamoalarning «O‘z-o‘zini emotsional holatini baxolash» metodikasi

	Xotirjamlik – bezotalik	G‘ayratliylk-toliqqanlik	Ko‘tarinkiylik – tushkunlik	O‘ziga ishonch yordamga muhtojlik
Xotirjamlik – bezotalik	1	0,779**	0,811**	0,799**
G‘ayratliylk-toliqqanlik		1	0,837**	0,919**
Ko‘tarinkiylik – tushkunlik			1	0,911**
O‘ziga ishonch yordamga muhtojlik				1

**P<0.01

Voyaga yetmaganlarda xulq-og‘ishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining natijalari orasidagi korrelyatsion tahlilda ijobiy korrelyatsiya munosabatlari kuzatildi. Ularning ko‘rsatishida “xotirjamlikni o‘rtishi” o‘z navbatida sportchida g‘ayralilikka ($r=0.779$, $P<0.01$), ko‘tarinkilikka ($r=0.811$, $P<0.01$) va o‘ziga ishonchni ($r=0.799$, $P<0.01$) shakllantirgani

singari; bezovtalik esa tushkunlikka ($r=0.811$, $P<0.01$), yordamga muxtojlikka ($r=0.799$, $P<0.01$) zarurat tug‘dirar ekan.

O‘z navbatida g‘ayratlilikning o‘shishi ko‘tarinkilikka ($r=0.837$, $P<0.01$), o‘ziga ishonchning ortishiga ($r=0.919$, $P<0.01$) hamda toliqqanlik esa tushkunlik ($r=0.837$, $P<0.01$) va yordamga muxtojlikni ($r=0.919$, $P<0.01$) mujassamlashuviga sabab bo‘lar ekan.

Ko‘tarinki kayfiyatning o‘shishi esa o‘ziga ishonchni kuchayishiga ($r=0.911$, $P<0.01$), aksincha tushkunlik esa yordamga muxtojlikka sabab bo‘lar ekan.

Umumiy ko‘rsatkich 7.2 ball bo‘lib jamoalar xavotirlanmasliklari, omadli, kuchli, ko‘p energiyali, g‘ayratli, ruhiy holatlari yaxshi, iqtidorli, kuchiga ishongan va irodali bo‘lishadi. Ijtimoiy va ahloq normalarini bajarishda bu toifa bolalar qat‘iydirlar. Ko‘pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qiladilar. Har doim qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishni oxirigacha yetkazaveradilar. Ular o‘z faoliyatlarini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o‘zlarini nazorat qilishga ko‘proq e‘tibor berganlari ma‘qul. Irodalari zaif emas, o‘zlarini nazorat qilishlari mumkin. Jang faoliyatlarini betartib va bebosh, bir tekisda harakat qilmaydilar, o‘z vaqtlarini va ishlarini tartibli tashkil qilishni biladilar, faqat o‘z fikrlari bilan hisoblashadilar. Kamdan kam hollarda intizomsizlik qilib turadi. Sinchkovlar, ba‘zan qaysarlikka moyilliklari bor. O‘zlarini hurmat qilish bilan birga o‘z obro‘ylari haqida doim g‘amxo‘rlik qilishlari kerak.

To‘g‘ri hamma bolalarda bunday ijobiy emotsional ko‘rsatkichlar uchramasada, umumiy xisoblar ko‘rsatib o‘tilgan emotsional jihatlarga yaqinroq.

O‘smirlar xulq-atvoridagi og‘ishlar va ijtimoiy dezadaptatsiya (moslasha olmaslik) muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. **Statistik bog‘liqlikning ishonchliligi:** “O‘z-o‘zini emotsional holatini baholash” metodikasi natijalariga ko‘ra, o‘smir va o‘spirinlarda emotsional ko‘rsatkichlar o‘rtasida o‘ta yuqori va statistik jihatdan ishonchli ijobiy korrelyatsiya ($P < 0.01$) mavjud. Xususan, g‘ayratlilik va o‘ziga ishonch ($r = 0.919$) hamda ko‘tarinki kayfiyat va o‘ziga ishonch ($r = 0.911$) o‘rtasidagi bog‘liqlik eng kuchli ko‘rsatkichlardir. Bu emotsional faollik o‘smirning o‘z-o‘zini ijobiy qabul qilishida bosh omil ekanini ko‘rsatadi.

2. **Metodologik paradoks va “Himoya mexanizmi”:** Kirish qismida o‘smirlar xulqida og‘ishlar, tajovvuzkorlik va intellektual-emotsional rivojlanishdan orqada qolish holatlari borligi aytilsa-da, test natijalari ularning o‘ziga ishonchi va xotirjamligi haddan tashqari yuqori (7.2 – 8.2 ball) ekanini ko‘rsatdi. Bu holat xulqi og‘ishgan o‘smirlarda o‘z qilmishlarini adekvat baholay olmaslik (refleksiyaning pastligi) yoki tashqi muhit bamisoli “himoya niqobi” (illyuzor yuqori o‘z-o‘ziga baho) shakllanganidan dalolat beradi.

3. **Kompleks korreksiya zarurati:** Har o‘nta sodir etilgan jinoyatning olti-sakkiztasi aynan ijtimoiy dezadaptatsiyaga borib taqalishi muammoning naqadar dolzarbligini ko‘rsatadi. O‘smirlar xulqidagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf etish hamda ularning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri (adekvat) baholashini shakllantirish uchun faqatgina ta‘limiy emas, balki tibbiy, psixologik va ijtimoiy (oila, mahalla, ta‘lim muassasasi) hamkorlikdagi kompleks korreksion chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тоффлер Э. На пороге будущего Текст. / Тоффлер Э. // «Американская модель»: с будущим в конфликте. - М.: Прогресс, 2007. - 345 с.
2. Уилбер К. Интегральная психология: Сознание, Дух, Психология, Терапия / Уилбер К.; Пер. с англ. под ред. Киселева А.. М: ООО «Издательство АСТ» и др., 2004. - 412с.
3. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1990. - 61 bet.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 2-tom.T.: Universitet. 2002.- 240
5. Gigerenzer G. Reasoning the Fast and Frugal Way: Models of Bounded Rationality / Gigerenzer G., D. Goldstein G. // Psychological Review. 1996. -43.-P. 650-669.
6. Stewart C. Winning Soccer Drills. //Athletic Journal. 1984, №10. -P.24-66.
7. Szilagi G. Strukture and organization of Youth Football. //3-rd UEFA Youth Conference - Vienna. 1991. -P.79-87.
8. Talaga J. Charakterystyka tresci walki sportowe jwpwce nozney. //Literatur der Sportwissens Haft. 1994, № 4. -p. 207.
9. Thibert J. Vitesse arme absolue: - France Football. 1999, - 17. p. 36.
10. Votik J. Diagnostika struktury hernich dovednosti futbolistu. - Trner. 1996, №6. p.72.